

MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA FOLKLOR VA MAQOM AYTIM YO‘LLARI ORQALI GENDER TENGLIK G‘OYALARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-20-242-245>

X.S.Ibragimova

*Toshkent davlat sharxshunoslik universiteti dotsenti,
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD);*

G.A.Xolmirzayeva

*A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti
Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi metodisti*

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada musiqa madaniyati darslarida folklor va maqom aytim yo‘llaridan foydalanish orqali o‘quvchilarda gender tenglik g‘oyalarini shakllantirishning pedagogik ahamiyati yoritib berilgan. Xalq og‘zaki ijodi va milliy maqom san‘atining tarbiyaviy imkoniyatlari tahlil qilinib, ularning o‘quvchilarning ma‘naviy-axloqiy rivojlanishiga, jamiyatda erkak va ayolning teng huquq va imkoniyatlarga ega ekanligi haqidagi tasavvurlarini mustahkamlashdagi o‘rni ochib berilgan. Tadqiqot davomida musiqa ta‘limi jarayonida milliy madaniy meros asosida gender tenglik g‘oyalarini singdirishning samarali pedagogik usullari va yondashuvlari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: musiqa madaniyati, folklor, maqom, aytim yo‘llari, gender tenglik, pedagogik ahamiyat.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается педагогическое значение формирования идей гендерного равенства у учащихся на уроках музыкальной культуры посредством использования фольклорных и макомных певческих традиций. Анализируются воспитательные возможности народного музыкального наследия и национального макомного искусства, а также их роль в духовно-нравственном развитии обучающихся и формировании представлений о равных правах и возможностях мужчин и женщин в обществе. В работе обоснованы эффективные педагогические методы и подходы внедрения идей гендерного равенства в процесс музыкального образования на основе национальных культурных ценностей.

Ключевые слова: музыкальная культура, фольклор, маком, певческие традиции, гендерное равенство, педагогическое значение.

ABSTRACT

This article explores the pedagogical significance of fostering gender equality ideas among students through the use of folk and maqom singing traditions in music culture classes. The educational potential of folk music and national maqom art is analyzed, highlighting their role in students' spiritual and moral development as well as in shaping perceptions of equal rights and opportunities for men and women in society. The study substantiates effective pedagogical methods and approaches for integrating gender equality concepts into the music education process based on national cultural heritage.

Keywords: music culture, folklore, maqom, singing traditions, gender equality, pedagogical significance.

KIRISH

Bugungi kunda jahon hamjamiyati tomonidan gender tenglik masalasi ijtimoiy taraqqiyotning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Gender tenglik — bu jamiyat hayotining barcha sohalarida ayollar va erkaklar uchun teng huquq, imkoniyat va mas'uliyatlarni ta'minlashni anglatadi. Ta'lim tizimida esa gender tenglik madaniyatini shakllantirishda, yosh avlodning dunyoqarashi, ijtimoiy ongini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Rivojlanayotgan zamonamizda ta'lim tizimiga juda katta ahamiyat berilmoqda. Globallashuv sharoitida madaniyatni shakllantirishning dolzarb masalalardan biri gender tenglikdir. Respublikamizda ham gender tenglikni ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, ta'lim jarayoniga gender yondashuvni joriy etish, o'quvchilarda tenglik, adolat va bag'rikenglik g'oyalari qaror toptirish muhim vazifa sifatida belgilangan. Ushbu jarayonda umumta'lim fanlari qatorida san'at yo'nalishidagi fanlar, jumladan, musiqa madaniyati darslarining o'rnini beqiyos. Shu boisdan umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa madaniyati darslari orqali o'quvchilarda gender tenglik, o'zaro hurmat va teng imkoniyatlar haqidagi tushunchalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Musiqa madaniyati darslari nafaqat estetik did, nafosatni, madaniyatni rivojlantiruvchi, balki ta'lim hamda tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan fanlardan biridir. O'quvchi yoshlarimizda ushbu fan orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlar, o'zaro hamjihatlik, bag'rikenglik, va gender tenglik g'oyalari shakllanadi, hamda mustahkamlanadi. Dars jarayoni mobaynida esa turli xalqlar va davrlarga mansub musiqa asarlarini o'rganish, tahlil qilish orqali yigit va qiz bolalarning aynan ijodiy salohiyatlarini teng ravishda namoyon etilishiga sharoit yaratiladi.

Gender tenglik madaniyatini shakllantirish nuqtai nazaridan tarix hamda hozirgi zamon musiqa san'atining qay yo'nalishini olmaylik unda ham ayol, ham erkak san'at arboblari faoliyatlarini teng yoritish alohida ahamiyatga ega. Bu bilan o'quvchi yoshlarimiz ongida “kasb yoki ijod faqat bir jins vakillariga xos” degan qarashlarning oldi olinadi. Aytib o'tish joizki jamoaviy kuylash, ansambl va xor mashg'ulotlari jarayonida barcha o'quvchilarning teng ishtiroki ta'minlanib, o'zaro hamkorlik va hurmat muhitini shakllantirishga erishiladi.

Musiqa madaniyati darslarida gender tenglikni targ'ib etish, avvalo, o'qituvchining pedagogik yondashuviga bog'liqdir. O'qituvchi dars jarayonida barcha o'quvchilarga bir xil munosabatda bo'lishi, ularning qobiliyat va qiziqishlarini jinsidan qat'iy nazar rivojlantirishga e'tibor qaratishi lozim. Bu esa ta'lim jarayonida adolat va tenglik tamoyillarining amalda qaror topishiga xizmat qiladi. **Musiqa madaniyati darslari** bu jarayonda katta imkoniyatlarga ega, chunki musiqa inson hissiyotiga, dunyoqarashiga va ijtimoiy munosabatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'zbek xalqining **folklor qo'shiqlari va maqom san'ati** esa milliy qadriyatlar bilan bir qatorda ayol va erkak obrazlarini, ularning jamiyatdagi o'rnini aks ettirib kelgan.

Gender tenglik – jamiyatda ayol va erkaklarning huquq, imkoniyat va majburiyatlarining tengligini anglatadi. Musiqa madaniyati darslarida gender tenglikni quyidagi yo‘llar orqali singdirish mumkin: o‘g‘il va qiz bolalarning musiqiy faoliyatda teng ishtirokini ta‘minlash. Ustozlar ijrolarni, tinglash va tahlil jarayonini rivojlantirish. Ayol va erkak san’atkorlarning ijodini teng o‘rganish. Musiqa darsi faqat ijro emas, balki **tarbiyaviy maydon** hamdir.

O‘zbek folklor qo‘shiqlari – xalq hayotining badiiy aksidir. Ularda ayollarning jasorati, donoligi, sadoqati, erkaklarning mas’uliyati va mehnatsevarligi ifodalanadi. **“Yor-yor”, “Alla”, “Lapar”, “Terma”** kabi janrlarda ayol obrazi faqat uy bekasi sifatida emas, balki tarbiyachi, maslahatchi, hayotning muhim tayanchi sifatida talqin qilinadi. Qiz va o‘g‘il bolalarga qo‘shiqlarni **navbat bilan ijro ettirish**, rollarni almashtirish orqali tenglik tushunchasi mustahkamlanadi. Qo‘shiqlar mazmunini muhokama qilish jarayonida o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash rivojlanadi. Folklor o‘quvchilarga milliylik asosida gender tenglikni tabiiy va majburlamasdan tushuntiradi. Aytish joizki, san’atning bu turida ham gender tenglikdan foydalanilmoqda.

Maqom san’ati – o‘zbek mumtoz musiqasining yuksak namunasi bo‘lib, unda insoniy kechinmalar, muhabbat, sadoqat, adolat kabi umuminsoniy g‘oyalar mujassam. Maqom san’atining ta’limiy hamda tarbiyaviy ahamiyatlari mavjud. Tarixda **ayol maqom ijrochilari** (masalan, hofizalar) faol bo‘lganini ko‘rsatish orqali qizlarda ishonch va motivatsiya oshadi. Maqomlarni tinglash va tahlil qilish jarayonida ayol va erkak ovozlarning teng badiiy qiymatga ega ekanligi tushuntiriladi. O‘g‘il va qiz bolalarni bir xil murakkablikdagi maqom parchalarini o‘rganishga jalb qilish teng imkoniyatlarni yaratadi. **Natijada** esa maqom kuy qo‘shiqlarini ijro qilishda jinsiy cheklov yo‘qligi haqidagi tushuncha shakllanadi.

Gender tenglikni samarali tatbiq etishda quyidagi usullardan samarali foydalanish muimkin. **Guruhli ijro** – qizlar va o‘g‘il bolalarni aralashtirib ishlash. **Munozara va savol-javob** – qo‘shiq yoki maqom mazmunida ayol va erkak obrazlarini tahlil qilish. **Rolga kirish** – folklor asarlardagi obrazlarni sahnalashtirish. **Teng baholash** – ijro va faoliyatni jinsga qarab emas, mahoratga qarab baholash. Bugungi kunda gender tenglikni ta‘minlash jamiyatning barqaror rivojlanishi va ijtimoiy adolatni qaror toptirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda ta’lim tizimi, xususan, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitiladigan musiqa madaniyati fani muhim pedagogik va tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Musiqa madaniyati darslari o‘quvchilarning nafaqat estetik didini va musiqiy savodxonligini rivojlantiradi, balki ularda gender tenglik, o‘zaro hurmat, hamkorlik va bag‘rikenglik kabi ijtimoiy muhim fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Musiqa san’ati, ayniqsa o‘zbek xalq folklori va maqom san’ati orqali ayol va erkak obrazlarini teng va xolis yoritish o‘quvchilarda “kasb, ijod yoki faoliyat faqat bir jinsga xos” degan qarashlarning oldini olishga imkon yaratadi. Folklor qo‘shiqlari va maqom asarlarida aks etgan umuminsoniy g‘oyalar — muhabbat, sadoqat, adolat, mas’uliyat va hamjihatlik tushunchalari o‘g‘il va qiz bolalar ongida gender

tenglik madaniyatini tabiiy va samarali tarzda singdiradi. Jamoaviy kuylash, ansambl va xor mashg‘ulotlari jarayonida barcha o‘quvchilarning teng ishtirokining ta’minlanishi esa o‘zaro hurmat va hamkorlik muhitini mustahkamlaydi.

Musika madaniyati darslarida gender tenglikni targ‘ib etish, avvalo, o‘qituvchining pedagogik yondashuvi va adolatli munosabatiga bog‘liqdir. O‘quvchilarning qobiliyat va qiziqishlarini jinsidan qat’i nazar rivojlantirish, ijro va faoliyatni mahorat asosida baholash, ayol va erkak san’atkorlar ijodini teng o‘rganish ta’lim jarayonida teng imkoniyatlar yaratishga xizmat qiladi. Natijada o‘quvchilarda teng huquqlilik, ijtimoiy mas’uliyat va faol fuqarolik pozitsiyasi shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, musika madaniyati darslarida folklor va maqom aytim yo‘llari orqali gender tenglik g‘oyalarini shakllantirish milliy qadriyatlarni asragan holda zamonaviy ijtimoiy qarashlarni rivojlantirishga imkon beradi. Nafaqat musiqiy savodxonligini, balki ijtimoiy ongini ham rivojlantiradi. Bu jarayon milliy qadriyatlarni asraydi. Zamonaviy gender qarashlarni shakllantiradi Ushbu yondashuv kelajakda teng huquqli, madaniyatli, ongli va mas’uliyatli shaxslarni tarbiyalashda muhim pedagogik omil bo‘lib xizmat qiladi. Aynan shu jihatlar musika madaniyati darslarining pedagogik ahamiyatini yanada oshiradi. Bunday yondashuv kelajakda teng huquqli, madaniyatli va mas’uliyatli shaxslarni voyaga yetkazishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekistondagi maktablar soni so‘ngi ikki yilda 233 taga ko‘paygan <https://xs.uz/uzkr/post/oz7>. O‘zbekistonda talabalar soni 1 milliondan oshdi <https://kun.uz/news/2023/02/14/>
2. Maktabgacha ta’lim qamrovini kengaytirish bo‘yicha 5 yillik dastur ishlab chiqiladi URL: <https://www.gazeta.uz/uz/2023/05/17/preschool-education/>
3. Tursunova, M. Ayollar va gender munosabatlari masalalari. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2021.
4. Sattarova, I. M., & Abdulmadjidova, M. (2021). Ta’lim Jarayoni Samaradorligini Oshirishda O ‘Yinli Texnologiyalardan Foydalanish Pedagogik Zaruriyat Sifatida. Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali, 1(6), 5-9.
5. Ismoilova, Z. Gender sotsiologiyasi asoslari. -Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
6. Tursunova, M. Ayollar va gender munosabatlari masalalari. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2021.
7. R.Abdullayev. An’anaviy o‘zbek musiqasi asoslari. “MIRON-ART-DESIGN” nashriyoti Toshkent 2023.
8. Abdurahmanov, S. (2018). O‘zbek maqom san’ati tarixi va ijrochiligi. Toshkent: Sharq.
9. Qodirov, A. (2015). Maqom nazariyasi va pedagogik texnologiyalari. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
10. Rasulov, B. (2017). Shashmaqom va maqom ijrochiligi metodikasi. Toshkent: Fan va texnologiya.